O‘ZBEKISTON – SERBIYA MUNOSABATLARI YANGI BOSQICHGA KO‘TARILDI

28-oktyabr kuni Ko‘ksaroy qarorgohida mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchichni rasmiy kutib olish marosimi o‘tkazildi.

Davomi → 2-betda



Международное сотрудничество

В ГОРОДЕ МОСКВА ПРОШЕЛ Ч-Й НАЦИОНАЛЬНЫЙ КОНГРЕСС «НАЦИОНАЛЬНОЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЕ 2025»

Продолжение → 8 стр.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

BIZNES DAILY BIRJA

#87 (3281) 30.10.2025

GAZETA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO‘MAGI BILAN CHOP ETILADI

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

Kelgusi yilga mo‘ljallangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va davlat budjeti parametrlari muhokama qilindi

27-oktyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishda joriy yilda iqtisodiyotda kutilayotgan natijalar va 2026-yil uchun mo‘ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar muhokama qilindi.



Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiyotimiz prognozdan ancha yuqori sur’atda – 7,6 foizga o‘sdi. Sanoat hajmi 6,8 foiz, qurilish – 14,2 foiz, xizmatlar – 14 foiz, qishloq xo‘jaligi – 4,1 foizga oshdi.

Oltin-valyuta zaxiralari o‘tgan yilga nisbatan 35 foizga ko‘payib, 55 milliard dollarga yetdi. Nufuzli xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz iqtisodiy istiqbollarini yuqori baholamoqda. “Fitch Ratings” ilk bor mamlakatimiz suveren reytingini bir pog‘onaga oshirgan bo‘lsa, “Moody’s” va “S&P Global” o‘z kutilmasini “barqaror”dan “ijobiy”ga o‘zgartirdi.

– Eng muhimi, erishilgan natijalar aholi farovonligini oshirishga xizmat qilyapti, – dedi davlatimiz rahbari.

Aholi daromadlari 18,4 foizga, omonatlar 35,3 foizga, o‘rtacha ish haqi esa 19,2 foizga o‘sdi. So‘rovlar aholi va biznes o‘rtasida ishonch muhiti kuchayganini, yangi ish o‘rinlari va daromad manbalari kengayayotganini ko‘rsatmoqda.

Prezident yuqori o‘sish sur’atlarini yil yakunigacha saqlab qolib, yalpi ichki mahsulot hajmini 135 milliard dollardan oshirish iqtisodiy kompleksning asosiy vazifasi bo‘lishini qayd etdi.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilishda kelgusi yil uchun asosiy rejalar ko‘rib chiqildi.

Mutasaddilar kelgusi yilda o‘sish sur’atini 6,6 foiz darajasida ta’minlab, yalpi ichki mahsulot hajmini 150 milliard dollardan oshirish, iqtisodiyotga barcha manbalardan kamida 400 trillion so‘m yo‘naltirish, inflyatsiyani 7 foizdan ortiq bo‘lmagan darajada saqlab qolish prognoz qilingani yuzasidan axborot berdi.

Prezidentimiz bu rejalarga erishish uchun barcha imkoniyat va sharoit mavjudligini ta’kidlab, har bir vazirlik, tarmoq va hudud rahbarlari jiddiy e’tibor qaratishi zarur bo‘lgan muhim masalalarni ko‘rsatib o‘tdi.

2026-yilgi budjet loyihasida asosiy soliq stavkalari o‘zgarishsiz qolayotgan sharoitda budjet daromadlarini izchillik bilan oshirib borish, shu bilan birga, xarajatlar qismining samarali sarflanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish shartligi qayd etildi.

Prezident ta’kidlaganidek, kelgusi yilda xarajatlarni keskin qisqartirish va samaradorlikni oshirish barcha darajadagi rahbarlar uchun asosiy mezon bo‘ladi.

Bunda strategik tarmoqlarda tannarxni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, davlat ishtirokidagi korxonalarning dividend siyosatini tartibga solish, subsidiya va imtiyozlarning natijadorligini tahlil qilib, samarasi past bo‘lganlarini bekor qilish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, tuman va shahar budjetlarining daromadlarini ko‘paytirish borasidagi ishlarning samaradorligini oshirish yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.

Xalqaro moliya tashkilotlari mablag‘lari ishtirokidagi loyihalarni jadallashtirish, bundan buyon mavjud loyihalarni oxiriga yetkazibgina yangi loyihalarga resurs jalb qilish tizimiga o‘tish zarurligi qayd etildi.

Vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari jamg‘armalarida to‘plangan qoldiqning yarmini alohida jamg‘armaga o‘tkazish va ushbu mablag‘larni maktablar qurilishiga va tibbiyotga yo‘naltirish topshirildi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalardan kelib chiqib, 2026-yilgi Davlat budjeti loyihasining asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi.





Jarayon

O‘zbekiston Prezidenti AQSH delegatsiyasini qabul qildi

→ 3-betda



Международное сотрудничество

В МИПТ состоялись переговоры с американской делегацией

→ 8 стр.



ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ

REKLAMA VA E’LONLAR BO’LIMI

+998 (99) 353-55-54

telegram BIZNES DAILY BIRJA

Geologiya sohasining salohiyati ilg‘or kompetensiyalar asosida oshiriladi



Prezident Shavkat Mirziyoyev geologiya sohasiga ilg‘or xalqaro tajriba va kompetensiyalarni joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Yig‘ilishda mamlakatimiz geologiya tizimini zamonaviy ilmiy va texnologik asosda rivojlantirish, qazilma boyliklar bo‘yicha resurs bazasini kengaytirish hamda mineral xomashyoni chuqur qayta ishlashni ta’minlash dolzarb vazifa ekani ta’kidlandi.

Dunyo tajribasi geologiya-qidiruv ishlarini o‘tkazish murakkab bo‘lgan hududlarda ham sun’iy intellekt yordamida yangi konlarni aniqlash mumkinligini ko‘rsatyapti. Bu borada regional tadqiqotlarni kengaytirish va zamonaviy geofizik usullardan foydalanish qo‘l keladi.

Shu maqsadda mutasaddilar xalqaro hamkorlar, jumladan, kon-geologiya sohasida dunyoda ilg‘or bo‘lgan AQSHning Kolorado konchilik maktabi bilan birgalikda ilmiy tadqiqot va amaliy ishlanmalarni birlashtiruvchi zamonaviy Kompetensiyalar markazini tashkil etish loyihasi to‘g‘risida axborot berdi.

Markazning asosiy vazifalari qidiruv ishlariga raqamli yechimlar, sun’iy intellekt va aerogeofizik texnologiyalarni joriy etishdan iborat bo‘ladi. Ilg‘or xorijiy tajribaga asoslanib, ma’lumotlarni raqamli shaklda tahlil qilish, geokimyoviy va kosmogeologik tadqiqotlar natijalarini integratsiyalash hamda istiqbolli konlarni aniqlashni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma’qullab, tarmoqda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali istiqbolli maydonlarni aniqlash hamda o‘zlashtirishni tashkil etish yuzasidan qator topshiriqlar berdi.



O‘zbekiston – Serbiya munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi



28-oktyabr kuni Ko‘ksaroy qarorgohida mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchichni rasmiy kutib olish marosimi o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif etdi.

Ikki davlat madhiyalari yangradi. Harbiy orkestr sadolari ostida yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tdilar. Rasmiy delegatsiyalar a’zolarini qutladilar.

Birgalikda suratga tushilgandan so‘ng davlat rahbarlarining delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari boshlandi va yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich Qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar.

Yetakchilar huzurida hukumatlararo va idoralararo hujjatlar to‘plamini qabul qilish marosimi ham bo‘lib o‘tdi. Ular jumladan, quyidagilar:

- Investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risida bitim;
- Iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida bitim;
- Tibbiy xizmatlar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;
- Turizm sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;
- Ta’lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;
- Muhandislik, ilg‘or texnologiyalar, sun’iy intellekt va turdosh sohalardagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;
- Diplomatik kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnoma;
- Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi hamkorlik bo‘yicha 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan dastur;
- Mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida memorandum;
- Sport va jismoniy tarbiya sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnoma;
- Toshkent va Belgrad shaharlari o‘rtasida sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida bitim.





O‘zbekiston Prezidenti AQSH delegatsiyasini qabul qildi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Serjio Gor boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda AQSH Davlat kotibining o‘rinbosari Kristofer Landau va boshqa rasmiy shaxslar ham ishtirok etdi.

O‘zbekiston – AQSH strategik sheriklik munosabatlarining joriy yil 23-sentyabr kuni Nyu-York shahrida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Serjio Gor davlatimiz rahbariga AQSH Prezidenti Donald Trampning salomi va samimiy tilaklarini yetkazdi.

Jadal siyosiy muloqot, turli darajalardagi almashinuvlar va faol ishbilarmonlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, oktyabr oyi boshida AQSH Savdo palatasi delegatsiyasining tashrifi muvaffaqiyatli o‘tdi.

Qabul qilingan “yo‘l xaritasi” asosida sanoat, moliya, muhim minerallar, energetika, raqamlashtirish, qishloq xo‘jaligi va boshqa ustuvor yo‘nalishlardagi loyihalarni ilgari surish dolzarbligi ta’kidlandi.

Tomonlar xavfsizlik, terrorizm va ekstremizm, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish sohalarida sheriklikni mustahkamlash masalalarini ham muhokama qildilar.

Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Bo‘lajak tadbirlar rejasi, shu jumladan kelgusi hafta Vashington shahrida “C5+1” formatidagi sammitni o‘tkazish masalalari ko‘rib chiqildi.

Pul-kredit siyosati: kelgusi uch yillik asosiy yo‘nalishlar loyihasi ishlab chiqildi

Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027-2028-yillarga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari konseptual loyihasi tasdiqlandi.

Markaziy bank ma’lumotiga ko‘ra, ushbu loyihani ishlab chiqishda tashqi va ichki sharoitlarning o‘rta muddatli istiqboldagi rivojlanishi bo‘yicha kutilmalar va ular asosida makroiqtisodiy rivojlanishning asosiy ssenariysi, muqobil xatarlar tahlili hamda mos ravishda pul-kredit siyosati choralariga va ularni takomillashtirib borishga asoslandi. O‘rta muddatli prognozlarni ishlab chiqish va mos ravishda pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilashda makroiqtisodiy rivojlanishning asosiy ssenariysi ishlab chiqildi.

Asosiy ssenariy doirasida tashqi sharoitlarni belgilashda jahon iqtisodiyotida noaniqliklar saqlanib qolishi fonida global o‘sish sur’atlari nisbatan pastroq shakllanishi, mamlakatlarni inflyatsiya bo‘yicha targetlariga erishishi nisbatan uzoqroq davom etishi, valyuta bozorlarida keskin o‘zgarishlar yuz bermasligi, oltin narxining nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi kabi taxminlarga tayanildi.

Ichki sharoitlarni belgilashda esa, yalpi talabning barqarorlashib borishi, kreditlash jarayonlarining mo‘tadillashuvi, pul o‘tkazmalari o‘sishining o‘rta muddatli trayektoriyasiga qaytishi, investitsiyalar oqimining barqaror shakllanishi, fiskal taqchillik o‘rta muddatda YAIMga nisbatan 3 foizdan oshmasligi nazarda tutildi. Asosiy ssenariyga ko‘ra, 2026-yilda real YAIM o‘sishi 5,5–6,5 foiz, 2027–2028-yillarda esa 6–7 foiz darajasida prognoz qilinmoqda. Makroiqtisodiy rivojlanishning asosiy ssenariysi va boshqa shoklar sharoitida ham pul-kredit siyosati inflyatsiyani 5 foizlik targeti darajasigacha pasaytirishga qaratiladi. Bunda shoklar ta’siri ko‘lami va davomiyligidan kelib chiqib, qat’iylik darajasi va muddatlariga o‘zgartirish kiritib boriladi.

Prognozlarga ko‘ra, 2026-yil oxiriga qadar umumiy inflyatsiya 7 foizga kamayishi, tashqi inflyatsion bosimning kamayishi va inflyatsion kutilmalarning barqarorlashuvi natijasida 2027-yilda inflyatsiya 5 foizlik target darajasigacha pasayishi va 2028-yildan ushbu daraja atrofida shakllanishi kutilmoqda. Ushbu prognozlar xususiylashtirish jarayonlarining davom etishi, xususiy va xorijiy investitsiyalar hajmining barqaror o‘sishi, iqtisodiyotni kreditlash sur’atlarining maqbullashishi, shuningdek,



iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq xatarlar kuzatilmasligini inobatga oladi.

Ichki va tashqi kutilmagan xatarlar yuzaga kelishi bilan bog‘liq makroiqtisodiy rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqishda, mazkur xatarlar bir vaqtda amalga oshish ehtimoli pastligini hisobga olgan holda, avvalgi yillardagi bir necha tashqi va ichki xatarlarni bir ssenariy doirasida o‘rganish yondashuvidan farqli ravishda har bir xatar alohida ko‘rib chiqildi. Xususan, makroiqtisodiy rivojlanishning asosiy ssenariysidagi shartlardan farqli kelgusi yillarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tashqi va ichki xatarlar (shoklarni) alohida o‘rganilib, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning asosiy ssenariydagi prognoz darajasidan chetlashishi baholandi.

Inflyatsiyani kuchaytiruvchi asosiy shoklar sifatida savdo hamkorlari valyutalarining yuqori qadrsizlanishi, oltin narxining keskin pasayishi, import oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining sezilarli oshishi, fiskal taqchillikning kengayishi, energiya ta’minotidagi uzilishlar, iqlim sharoitlarining yomonlashishi, yangi imkoniyatlar hisobiga kreditlash qamrovi oshishi bilan iste’mol talabining keskin faollashishi hamda tartibga solinadigan narxlarning inflyatsiya darajasidan sezilarli yuqori oshirilishi ko‘rib chiqildi.

Inflyatsiyani pasaytirishga xizmat qiluvchi shoklar sifatida esa oltin narxining keskin oshishi, xususiylashtirish jarayonlarining faollashishi, investitsion va raqobat muhiti yaxshilanishi tahlil qilindi.

Ushbu sharoitlar yuzaga kelgan taqdirda pul-kredit sharoitlari qat’iylik darajasi va davriyligiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi tahlil qilindi. Bunda e’tibor o‘rta muddatli istiqbolda inflyatsiyani target ko‘rsatkichiga erishishiga qaratildi.


Shuningdek, mazkur hujjatda kelgusi yillarda pul-kredit siyosati samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha rejalar ham keltirilgan. Bunda pul-kredit siyosati qarorlarini transmissiyasini yaxshilash bo‘yicha pul-kredit operatsion mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha choralar, makroiqtisodiy prognoz va tahlil salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha mavjud model tizimlari parametrlarini qayta baholash va yangi modellar bilan boyitish, hamda pul-kredit siyosati kommunikatsiyasini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, qayd etilganidek, kelgusi yillarda inflyatsiyaning past darajada barqaror shakllanishini ta’minlashda alohida ahamiyat qaratilishi lozim bo‘lgan masala – bu inflyatsiyaning taklif bilan bog‘liq fundamental omillarini bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, birinchi navbatda, ichki bozorda raqobat muhitini kuchaytirish, tarif va notarif cheklovlarni kamaytirib borish bilan tashqi savdo erkinligini yaxshilash, bunda tovarlar importida konsentratsiyalashuv darajasini pasaytirish, tovar va xizmatlar taklifining oshirishni ta’minlashga qaratilgan energiya resurslarini yetkazib berish uzluksizligi va yetarli darajada transport infratuzilmasi potensialini shakllantirish kabi choralarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, davlat korxonalarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini faollashtirish, direktiv va imtiyozli kreditlash amaliyotini kamaytirish davom ettiriladi hamda kapital bozorini takomillashtirib borish pul-kredit siyosati qarorlari samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tarkibiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi iqtisodiyot tarmoqlari salohiyati va unumdorligini oshirishi orqali inflyatsiyaning past va barqaror shakllanishi hamda yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkonini beradi.

Hujjatda keltirilishicha, likvidlilikni jalb etish bo‘yicha asosiy operatsiyalarni sekyuritizatsiya qilish, benchmark stavkaga bog‘langan o‘zgaruvchan foiz stavkali moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, bank tizimi likvidliligini favqulodda qo‘llab-quvvatlash, Markaziy bankning garov mexanizmini ishlab chiqish, makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish salohiyatini rivojlantirish, pul-kredit siyosati kommunikatsiyasini takomillashtirish ham ko‘zda tutilgan.

Pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027-2028-yillarga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari konseptual loyihasi Markaziy bank veb-saytiga jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirilgan.



BIZNES DAILY BIRJA

#87 (3281) 30.10.2025

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

- **Биржа савдолари натижалари**
- **Биржа бюллетенлари**
- **Котировкалар, листинглар**
- **Танлов ва тендерлар**
- **Қимматли қоғозлар бозори иштирокчиларининг муҳим фактлари**
- **Банкротлик**

Избоскан туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 24 октябрдаги 4-1704-2502/1774-сонли ажрими билан Избоскан туманидаги “Akmalbek Chorvasi” ФХ (СТИР 300430952) ва 4-1704-2502/1771-, 4-1704-2502/1276- ва 4-1704-2502/1277-сонли ажримлари билан Пахтаобод туманидаги “Huriniso Zuhriniso” (СТИР 205450136), “Yolg’izbog’ Tongi” (СТИР 303599240), “Мамарасул Охун” (СТИР 205420821) ФХга нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи этиб 2-тоифали суд бошқарувчиси Умаров Шохрухбек Шарифжонович тайинланди.

Мазкур ишлар бўйича суд муҳокамаси 2025 йил 2 декабрь куни соат 10.15 дан бошлаб Избоскан туманлараро иқтисодий суди биносида ўтказилади.

Қарздор корхоналар кредиторлари йиғилиши 2025 йил 1 декабрь куни соат 10.00 да Андижон шаҳар, А. Фитрат кўчаси, 214-а уйда ўтказилади. Рўйхатга олиш 9.30 да тўхтатилади.

Кун тартибидаги масалалар:

1. Андижон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 24 октябрдаги ажримларини маълумот ва ижро учун қабул қилиш.
2. Кузатув жараёни юзасидан муваққат бошқарувчининг ҳисоботлари.
3. Қарздорлар кредиторлари реестрини тасдиқлаш.
4. Ҳўжаликлар фаолиятида сохта банкротлик аломатларини аниқлаш юзасидан муваққат бошқарувчининг хулосасини тасдиқлаш.
5. Муваққат бошқарувчига ойлик иш ҳақи белгилаш.
6. Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилларидан бирини қўллаш.
7. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомили учун суд бошқарувчиси номзодини кўрсатиш.
8. Кредиторлар таклифлари билан бошқа масалалар.

Йиғилиш қатнашчиларини рўйхатга олиш соат 9.00 да бошланади. Кредиторлар йиғилишида кўриб чиқиладиган масалалар билан йиғилиш куни соат 10.00 гача танишиш мумкин. Кредиторлар вакиллари ушбу йиғилишда қарздорлик тўғрисида маълумот билан асосланган солиштирма далолатнома, кредиторлар реестрига киритиш ҳақида ариза, шахсини тасдиқловчи ҳужжат ва ваколатнома билан қатнашишлари шарт.

Барча ҳақдор ва қарздор хўжалик юритувчи субъектлар солиштирма далолатнома (асословчи ҳужжатлар) билан ваколатнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашишлари сўралади.

Қарздорларга нисбатан талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 (бир) ой давомида юқорида кўрсатилган манзилда қабул қилинади.

Мурожаат учун телефон: +99891-479-55-15.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 17 октябрдаги 4-1001-2511/115948-сонли ажрими билан қарздор “Brand booster” МЧЖга (СТИР 306144060) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув тартиб-таомили жорий этилди. Муваққат бошқарувчи этиб Эшназаров Муродулла Қўшназарович тайинланди.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 29 ноябрь куни соат 11.00 да Тошкент шаҳар, Яккасарой тумани, Афроосиёб кўчаси, 12-б уйда ўтказилади. Барча кредиторлар 1 (бир) ой давомида +99899-488-26-69 телефон рақами орқали мурожаат қилишлари мумкин.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Қарздор жамиятга нисбатан санация ёки ташқи бошқарув жорий қилиш.
2. Қарздорни тўловга қобилиятсиз деб топиш ва тугатишга доир иш очиш.
3. Санация қилувчи, ташқи ёки тугатиш бошқарувчиси номзодини тасдиқлаш.
4. Қарздор жамият кредиторлари реестрини тасдиқлаш.
5. Муваққат бошқарувчининг иш ҳақини белгилаш.

Кредиторларни рўйхатга олиш йиғилишдан 30 дақиқа олдин бошланиб, 5 дақиқа қолганда тугатилади.

Йиғилишда шахсини ҳамда қарздорликни асословчи ҳужжат билан қатнашиш талаб этилади.

Урганч туманлараро иқтисодий судининг 2024 йил 10 октябрдаги 4-2201-2402/7983-сонли иш юзасидан чиқарган ҳал қилув қарорига асосан Урганч шаҳридаги “Goodwill servic center” МЧЖга (СТИР 306942065) нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг умумий тартибида тугатиш жараёни жорий қилинди. Тугатиш бошқарувчиси этиб Рахманов Санъат Юлдашович (Аттестат: АА 000351) тайинланди.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 1 декабрь куни соат 10.00 да Урганч шаҳар, И.Каримов кўчаси, 124-уйда жойлашган Хоразм вилояти солиқ бошқармаси биносида бўлиб ўтади.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Тугатиш бошқарувчисининг ҳисоботи.
2. Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 14 августдаги 224-сонли қарори бўйича тугатиш бошқарувчисининг хулосасини тасдиқлаш.
3. Бошқа масалалар.

Йиғилишда кредиторлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат, унинг вакили ваколатини белгиловчи ишончнома ҳамда кредиторлик қарздорликни тасдиқловчи ҳужжатлар билан қатнашишлари мумкин.

Қарздорнинг таъсис ҳужжатлари ҳамда думалоқ муҳр (печать) ва тўртбурчак тамға (штамп)лари 10 (ўн) кун ичида тугатиш бошқарувчисига топширилмаса, мазкур эълон чиққан кундан эътиборан ҳақиқий эмас деб топилади.

Кредиторлар ўз талабларини эълон чиқарилган кундан эътиборан 1 (бир) ой муддат ичида тугатиш бошқарувчисига билдиришлари мумкин.

Мурожаат учун манзил: Хонқа тумани, Намуна қишлоғи, Туркистон маҳалласи, Килловут кўчаси, 30-уй. Тел: +99897-362-53-50.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажримлари билан қуйидаги корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Чўтов Мамаюсуп Омонович тайинланган.

Мазкур қарздор корхона кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 2 декабрь куни Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 320-хонасида бўлиб ўтади.

Йиғилишда “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 89-моддасида кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Кредиторлар йиғилишида кўриладиган масалалар билан танишиш хоҳиши бўлган кредиторлар кузатув жараёнида мурожаат қилишлари мумкин.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 320-хонасида қабул қилинади.

Тел: +99899-888-00-83.

Билдириладиган талаблар “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 87-моддаси бўйича белгиланган муддатда асослилигини тасдиқловчи ҳужжатлар илова қилинган ҳолда судга, қарздорга ҳамда муваққат бошқарувчига юборилган тақдирда, ўрганиб чиқилади ҳамда талаблар ўз тасдиғини топса, ўрнатилган тартибда кредиторлар реестрига киритилади.

Т/р	СТИР	Корхона номи	Иқтисодий суднинг (ажрими, ҳал қилув қарори)нинг		Суднинг номи	Рўйхатга олиш вақти	Кредиторлар йиғилишининг вақти
			Санаси	Рақами			
1	305689340	“Akpharm med tech” МЧЖ	29.09.2025 й.	4-1001-2508/106324	Тошкент	10.30	11.00

Тошкент вилояти суди иқтисодий ишлар бўйича судлов ҳайъатининг 2025 йил 13 октябрь куни чиқарган 4-11-2509/85-сонли ажримига мувофиқ, “Modern power systems” МЧЖга (СТИР 301713384) нисбатан банкротлик таомилининг кузатув жараёни жорий қилинди. Муваққат бошқарувчи этиб Абдуллаев Шерзод Мустафоевич тайинланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 2 декабрь куни соат 11.00 да Тошкент вилояти СБ биносида бўлиб ўтади. Кредиторлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат, ишончнома ва қарздорликни тасдиқловчи ҳужжат билан қатнашишлари мумкин.

Манзил: Тошкент вилояти СБ биноси мажлислар зали.

Марғилон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 27 октябрдаги 4-1504-2502/14499-сонли иш бўйича чиқарилган ажримига асосан Тошлоқ туманида рўйхатдан ўтган “Safo farm servis” МЧЖга (СТИР 302742088) нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Мирзаолимов Баходир Бахтиёр ўғли тайинланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 21 ноябрь куни соат 10.00 да Фарғона вилояти, Фарғона шаҳри, Оқ йўл кўчаси, 67-а уйда бўлиб ўтади.

Кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчи ҳисоботини тасдиқлаш.
2. Кредиторлар талаблари реестрини тасдиқлаш.
3. Муваққат бошқарувчи намунавий календарь иш режасини тасдиқлаш.
4. Муваққат бошқарувчига кузатув даври учун иш ҳақи тайинлаш.
5. Кузатув жараёни натижасига кўра, тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини белгилаш.

Кредиторлар қарздорга бўлган талаблари билан эълон чиққан кундан бошлаб кредиторлар йиғилишига қадар қуйидаги манзилга мурожаат қилишлари мумкин: (индекс: 150103) Фарғона вилояти, Фарғона шаҳри, Оқ йўл кўчаси, 67-а уй.

Тел: +99899-911-82-29. Email: bahodir.mirzaolimov@mail.ru

Тошкент вилояти Ўртачирчиқ туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 24 октябрдаги 4-1104-2502/7394-сонли ажримига асосан “Sogdiana agro olam” МЧЖга (СТИР 305092444) нисбатан банкротлик таомилининг кузатув жараёни жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Абдуллаев Шерзод Мустафоевич тайинланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 2 декабрь куни соат 11.30 да Тошкент вилояти СБ биносида бўлиб ўтади. Кредиторлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат, ишончнома ва қарздорликни тасдиқловчи ҳужжат билан қатнашишлари мумкин.

Манзил: Тошкент вилояти СБ биноси мажлислар зали.

“Turkiston” ХАТБ кредиторларининг 2025 йил 20 ноябрь санасида бўлиб ўтадиган навбатдаги йиғилишида қарздор “Turkiston” ХАТБга тегишли мол-мулкларни баҳолаш ишларига киришиш учун баҳоловчи ташкилот ҳамда баҳолаш ишлари якуни бўйича тузиладиган баҳолаш ҳисоботини экспертизадан ўтказиш учун ваколатли ташкилотни танлаш масаласи ва баҳолаш ҳисоботи бўйича низо чиқмаслиги учун баҳолаш ҳисоботи кейинчалик экспертизадан ўтказилиши масаласи кун тартибига киритилган.

Шу муносабат билан қарздор “Turkiston” ХАТБга тегишли бўлган барча мол-мулкларнинг бозор баҳосини аниқлаш, шунингдек баҳолаш ишлари якуни бўйича тузиладиган баҳолаш ҳисоботини экспертизадан ўтказиш бўйича ваколатли ташкилотлар ўртасида тендер эълон қилинади.

Тендер шартлари:

- тендерда иштирок этиш талабини билдирган ташкилотлар камида 5 йиллик тажрибага эга бўлиши;
- тендерда иштирок этиш талабини билдирган ташкилотлар томонидан тақдим этиладиган тижорат таклифлари муҳрланган конвертда бўлиши.

Мукаддам айнан “Turkiston” ХАТБга ва банкнинг таъсисчиларига тегишли бўлган мол-мулкларни баҳолашда иштирок этган баҳоловчи ташкилотларга тендерда иштирок этишга йўл қўйилмайди, улар томонидан тақдим этилган тижорат таклифлари кўрилмасдан қайтарилади. Агар тендер иштирокчилари томонидан ушбу маълумотлар яширилса ёки сохталаштирилса ҳамда ушбу ҳолат кейинчалик аниқланган тақдирда мазкур ташкилот қонунчиликда белгиланган тартибда жавобгарликка тортилади.

Иштирокчилар томонидан бир хил мазмундаги тижорат таклиф берилган тақдирда, баҳолаш ишларини ўтказиш учун ва баҳолаш ҳисоботини экспертизадан ўтказиш учун тендер ғолиби амалдаги “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 17-моддасига асосан кредиторларнинг кўпчилик овози билан тайинланади.

Тижорат таклифлари - Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, 11-мавзе, Заргарлик кўчаси, 48-а уй манзили бўйича қабул қилинади. Тендерда иштирок этиш истагида бўлган ташкилотлар шу манзилда ўзларини қизиқтирган маълумотларни олиши мумкин. Ҳужжатлар эълон расмий нашрда чоп этилган санадан бошлаб 2025 йил 14 ноябрь кунига қадар қабул қилинади.

Мурожаат учун тел: +99890-322-62-22.

Беруний туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 22 сентябрдаги 4-2302-2403/1621-сонли ҳал қилув қарори билан қарздор жисмоний шахс Балтабоев Садулла Джумобоевич (1985 йил 18 сентябрда туғилган, AD 5968822, ЖШШИР 31809853330050) ўзини-ўзи тўловга қобилиятсиз деб топиш ҳақидаги аризасига асосан тўловга қобилиятсиз деб топилган.

Иқтисодий суднинг 2025 йил 27 октябрдаги ажримига асосан молиявий бошқарувчи этиб Юсупов Мансурбек Янгибоевич тайинланган.

Қарздор жисмоний шахс Балтабоев Садулла Джумобоевич кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 2 декабрь куни соат 12.00 да Амударё тумани солиқ инспекцияси биносида бўлиб ўтади.

Кредиторлар талаблари мазкур эълон чоп этилган кундан бошлаб 1 (бир) ой ичида тугатиш бошқарувчиси томонидан қабул қилинади.

Манзил: Урганч тумани, Қипчоқ маҳалласи, Дилкаш кўчаси, 39-уй.

Мурожаат учун тел: +99893-922-07-17.

Ўртачирчиқ туманлараро иқтисодий суди ажримига асосан қуйидаги фуқаронинг ўзини-ўзи тўловга қобилиятсиз деб топиш тўғрисидаги аризаси бўйича унга нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилди ва суд бошқарувчиси З.Сафаров молиявий бошқарувчи этиб тайинланди.

Т/р	Қарздор фуқаро номи	ЖШШИР /СТИР	Суд ажрими		Манзили
			Санаси	Иш рақами	
1	Ташходжаева Рушона Елмурод қизи	60407026730014	24.10.2025 й	4-1104-2502/7433	Тошкент вилояти, Бўка тумани, Турон ҚФЙ, Қочқорсўйган МФЙ, Мустақиллик кўчаси, уй: Р/С

Ушбу қарздорга нисбатан барча талаблар бўйича эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида Тошкент шаҳри, Миробод тумани, Шаҳрисабз кўчаси, 6-уй, 2-қават, 207-хонага мурожаат қилиш мумкин. Тел: +99890-666-61-17.

Юқоридаги манзилда Ташходжаева Рушона Елмурод қизи кредиторлари йиғилиши 2025 йил 25 ноябрь куни соат 11.00 да бўлиб ўтади.

ВНИМАНИЮ АКЦИОНЕРОВ АО «FOTON»!

Внеочередное общее собрание акционеров состоится 20 ноября 2025 года в конференц-зале АО «Foton» по адресу: г.Ташкент, проспект Амира Темура, дом 13.

Время начала собрания: 15.00

Регистрация участников производится 20 ноября 2025 г. с 14.00 в помещении конференц-зала.

Дата составления реестра акционеров Общества для оповещения о проведении общего собрания 29 октября 2025г.

Дата составления реестра акционеров Общества для проведения общего собрания акционеров 14 ноября 2025г.

Контактный телефон: +99871 233 42 30, +99871 233 18 39, адрес электронной почты АО «Foton»: info@oaofoton.uz

ПОВЕСТКА ДНЯ:

1. Утверждение количественного и персонального состава счетной комиссии внеочередного общего собрания акционеров.
2. Утверждение регламента проведения внеочередного общего собрания акционеров.
3. Рассмотрение вопроса о передаче объекта недвижимости АО «Foton» в залог, находящегося по адресу: г.Ташкент, Чиланзарский район, ул. Дийдор, 71.

С материалами внеочередного общего собрания акционеров можно ознакомиться по адресу: г.Ташкент, Мирабадский район, проспект А.Темура, дом 13, с 8.30 до 16.00 часов.

Представитель акционера на общем собрании акционеров действует на основании доверенности, составленной в письменной форме. Доверенность на голосование должна содержать сведения о представляемом и представителе (имя или наименование, место жительства или место нахождения, паспортные данные или данные идентификационной ID-карты). Доверенность на голосование от имени физического лица должна быть удостоверена нотариально. Доверенность на голосование от имени юридического лица выдается за подписью его руководителя и заверяется печатью этого юридического лица (при наличии печати).

Наблюдательный совет.

Жиззах туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 15 октябрдаги 4-1301-2502/13426-сонли ажрими билан қарздор "Javohir Mahliyo Lyuks" ФХга (СТИР 304679909) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши бўйича кузатув тартиб-таомили жорий этилган. Муваққат суд бошқарувчиси этиб Нарзуллаев Пўлат Хасанович тайинланган.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар ва таклифлар Жиззах шаҳри, Ш.Рашидов шоҳкўчаси, 14-уй, 318-хонасида қабул қилинади.

Жиззах туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 15 октябрдаги 4-1301-2502/12865-сонли ажрими билан қарздор "Шижоаткор" ФХга (СТИР 305038192) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши бўйича кузатув тартиб-таомили жорий этилган. Муваққат суд бошқарувчиси этиб Нарзуллаев Пўлат Хасанович тайинланган.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар ва таклифлар Жиззах шаҳри, Ш.Рашидов шоҳкўчаси, 14-уй, 318-хонасида қабул қилинади.

Избоскан туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 24 октябрдаги 4-1704-2502/1772, 4-1704-2502/1775-, 4-1704-2502/1843- ва 4-1704-2502/1844-сонли ажримлари билан Избоскан туманида ташкил топган "Nafisa-Nazokat" (СТИР 206031094), "Madinabonu-Gulchiroy" (СТИР 206031102), "Izboskan Oq Oltin Jilosi" (СТИР 303515115), "Munaboy Kamolat" (СТИР 205993212) ФХ ҳамда 4-1704-2502/1770, 4-1704-2502/1773-сонли ажримлари билан Пахтаобод туманидаги "Шоядбек Шахноз" (СТИР 205045045), "Nazirov Uvaysiddin" (СТИР 205420814) ФХга нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи этиб 3-тоифали суд бошқарувчиси Усмонов Дилшодбек Иброхимович тайинланди.

Мазкур ишлар бўйича суд муҳокамаси 2025 йил 2 декабрь куни соат 10.00 дан бошлаб Избоскан туманлараро иқтисодий суди биносида ўтказилади.

Қарздор корхоналар кредиторлари йиғилиши 2025 йил 1 декабрь куни соат 10.00 да Андижон шаҳар, А. Фитрат кўчаси, 214-а уйда ўтказилади. Рўйхатга олиш 9.30 да тўхтатилади.

Кун тартибидаги масалалар:

1. Андижон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 24 октябрдаги ажримларини маълумот ва ижро учун қабул қилиш.
2. Кузатув жараёни юзасидан муваққат бошқарувчининг ҳисоботлари.
3. Қарздорлар кредиторлари реестрини тасдиқлаш.
4. Хўжаликлар фаолиятида сохта банкротлик аломатларини аниқлаш юзасидан муваққат бошқарувчининг хулосасини тасдиқлаш.
5. Муваққат бошқарувчига ойлик иш ҳақи белгилаш.
6. Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилларидан бирини қўллаш.
7. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомили учун суд бошқарувчиси номзодини кўрсатиш.
8. Кредиторлар таклифлари билан бошқа масалалар.

Йиғилиш қатнашчиларини рўйхатга олиш соат 9.00 да бошланади. Кредиторлар йиғилишида кўриб чиқиладиган масалалар билан йиғилиш куни соат 10.00 гача танишиш мумкин. Кредиторлар вакиллари ушбу йиғилишда қарздорлик тўғрисида маълумот билан асосланган солиштирма далолатнома, кредиторлар реестрига киритиш ҳақида ариза, шахсини тасдиқловчи ҳужжат ва ваколатнома билан қатнашишлари шарт.

Барча ҳақдор ва қарздор хўжалик юритувчи субъектлар солиштирма далолатнома (асословчи ҳужжатлар) билан ваколатнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашишлари сўралади.

Қарздорларга нисбатан талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 (бир) ой давомида юқорида кўрсатилган манзилда қабул қилинади.

Мурожаат учун телефон: +99891-479-55-15.

Решением Ташкентского межрайонного экономического суда по делу за №4-1001-2206/55470 от 17.03.2023 года ЧАКБ «HI-TECH BANK» (ИНН 207 055 284), объявлен банкротом и открыто ликвидационное производство.

Определением Ташкентского межрайонного экономического суда от 30.09.2025 года ликвидационным управляющим ЧАКБ «HI-TECH BANK» назначен Шарипов С.Т.

Для проведения оценки и экспертизы имущества недвижимости ЧАКБ «HI-TECH BANK», объявляется конкурс оценочных организаций.

Коммерческие предложения с указанием стоимости услуг, принимаются в течении десяти дней с даты публикации настоящего объявления по адресу: город Ташкент Мирабадский район ул.Шахрисабз, дом 45, телефон: +99897 705 57 45 и +99890 354 16 17.

Шаҳрисабз туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 21 октябрдаги 4-1802-2501/7111-сонли иш бўйича чиқарган ажримига асосан Абдухалилов Самариддин Умаровичга (ЖШШИР 30401952640110) нисбатан кузатув жорий этилган. Молиявий бошқарувчи этиб 1-тоифали суд бошқарувчиси Ачилов Абдували Норбобоевич тайинланган.

Ушбу жисмоний шахс кредиторлари йиғилиши 2025 йил 17 ноябрь куни соат 15.00 да Шаҳрисабз шаҳар, Ипак йўли кўчаси, 108-уйда (мўлжал Шаҳрисабз шаҳар Иқтисодиёт ва молия бўлими биноси) бўлиб ўтади. Барча талаблар эълон чиққан кундан эътиборан бир ой муддат ичида Шаҳрисабз шаҳар, Ипак йўли кўчаси, 108-уйда қабул қилинади.

Маълумотларни +99888-116-33-23 телефон/телеграм рақами ёки abduvali3444@gmail.com электрон почта орқали юбориш ва олиш мумкин.

Зомин туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 17 октябрь ҳамда 24 октябрдаги 4-1303-2502/6339-сонли ва 4-1303-2502/6344-сонли ҳал қилув қарорлари билан Зарбдор туманидаги хўжалик юритувчи субъектлар — "Qayirmalik Shuxrat" ФХ (СТИР 306930871), "Shaxzod yutug'i" ФХ (СТИР 306145273) тўловга қобилиятсизликнинг умумий таомили бўйича банкрот деб эътироф этилиб, тугатишга доир иш юритиш очилган. Тугатиш бошқарувчиси этиб Ф.Носиров тайинланган.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида қабул қилинади. Кредиторларнинг иккинчи йиғилиши 2025 йил 28 ноябрь куни соат 11.00 да (индекс:130100) Жиззах шаҳри, Боғишамол МФЙ, Тоғишамол кўчаси, 1-уйда бўлиб ўтади.

Кун тартиби:

1. Кредиторлар йиғилиши раисини сайлаш.
2. Тугатиш бошқарувчиси ҳисоботи.
3. Тугатиш режаси ва харажатлар сметасини тасдиқлаш.
4. Тугатиш бошқарувчисига ойлик иш ҳақини белгилаш.
5. Бошқа масалалар.

Ушбу йиғилишда кредиторлар қарздорликни тасдиқловчи ҳужжатлар, вакиллар шахсини тасдиқловчи ҳужжат ва ишончнома билан қатнашишлари мумкин.

Мурожаат учун тел: +99895-417-61-81. Ушбу хўжалик юритувчи субъектларга тегишли бўлган думалоқ муҳр ва бурчакли штамплар 3 (уч) кун ичида тугатиш (суд) бошқарувчисига топширилмаган тақдирда, бекор қилинган ҳисобланади.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажрими билан қуйидаги корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Чўтов Мамаюсуп Омонович тайинланган.

Мазкур қарздор корхона кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 5 декабрь куни Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 320-хонасида бўлиб ўтади.

Кредиторлар йиғилишида "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 89-моддасида кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Йиғилишда кўриб чиқиладиган масалалар билан танишиш хоҳиши бўлган кредиторлар кузатув жараёнида мурожаат қилишлари мумкин.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 320-хонасида қабул қилинади.
Тел: +99899-888-00-83.

Т/р	СТИР	Корхона номи	Иқтисодий суднинг (ажрими, ҳал қилув қарори)нинг		Суднинг номи	Рўйхатга олиш вақти	Кредиторлар йиғилишининг вақти
			Санаси	Рақами			
1	303719034	"Uztrade" АЖ	24.10.2025й.	4-1001-2511/116541	Тошкент	15.30	16.00

ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ /
REKLAMA VA E'LONLAR BO'LIMI

+998 (99) 353-55-54

telegram BIZNES DAILY BIRJA

Darya Ilina, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari. Aleksey Kim, shu institut bosh mutaxassisi.

Kambag'allikni qisqartirishning o'ziga xos omili

Bugungi kunda mamlakatimizda har yili 23 million tonnadan ortiq meva- sabzavotlar, jumladan, sabzavotlar (51,1 foiz), kartoshka (15,8 foiz), mevalar (13,8 foiz), poliz mahsulotlari (11,4 foiz), uzum (7,8 foiz) yetishtirilmoqda.

Ayrim turdagi mahsulotlarni qayta ishlash darajasi ishlab chiqarishning 10-15 foizidan oshmaydi. Tahlillarga ko'ra, yo'qotishlar 20-30 foizni tashkil etadi. Ma'lumotlarga qaraganda, sovitish kameralarining asosiy maqsadi hosilni juda muzlatmasdan vaqtincha saqlash. Bu holda yo'qotishlar minimallashtiriladi. Bu sabzavot va mevalarning tovar ko'rinishi va ta'mini saqlab qolishning juda samarali usulidir.

Sovutkichli omborxonalar umumiy quvvatining 50,3 foizi o'rtacha quvvatli (100-1000 tonna), 46,3 foizi katta quvvatli (1000 tonnadan yuqori) va atigi 3,4 foizi kichik quvvatli (100 tonnadan past) sovutkichli omborxonalarga to'g'ri keladi. Umuman respublikamiz bo'yicha bitta sovutish omborining o'rtacha hajmi 567,5 tonnani tashkil etadi. Viloyatlar bo'yicha bitta sovutish omborining eng katta o'rtacha hajmi Samarqand (962,7 tonna) va Toshkent (805,1 tonna) viloyatlarida kuzatilmoqda. O'rtacha hajmi eng kichik bo'lgan sovutish omborlari Navoiy (265,4 tonna) va Buxoro (323,1 tonna) viloyatlarida joylashgan. Bir qator mutaxassislarning ta'kidlashicha, saqlash quvvatlari eng yaxshi holatda mamlakat eksport salohiyatining kamida 75 foizini qoplashi kerak.

Kelajakda davlat strategiyalari doirasida rejalashtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportining sezilarli o'sishi tufayli sovutish quvvatining yetishmasligi yanada keskin bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun bir qator chora-tadbirlarni ko'rish zarur. Birinchidan, sovutish omborlarining sig'imini oshirishdagi muammolarni aniqlash uchun hududlardagi vaziyatni o'rganish lozim. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining sovutish omborlariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash uchun ularning hajmi, turlari va boshqalarni hisobga olgan holda so'rov o'tkazish zarur. Uchinchidan. sovutish uskunalari bilan ta'minlanishi bo'yicha eng qoloq tumanlar foydasiga qo'llab-quvvatlash ahamiyatini hisobga olgan holda, hududlarda yangi sovutish quvvatlarini tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning alohida dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash, chuqur muzlatish va qayta ishlash loyihalari uchun sovutish omborlarining joylashuvini ko'rsatadigan transport yo'nalishlarining raqamli xaritasini yaratish va barcha foydalana oladigan tarzda joylashtirish kerak. Shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo'jaligi yer uchastkalarida yengil konstruksiyalardan tayyorlangan sovutish omborlarini joylashtirish huquqini berish imkoniyatlarini ko'rib chiqish darkor. Yangi sovutish omborlarini qurish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va imtiyozli kreditlar berish doirasida, shuningdek, 500 tonna va undan ortiq quvvatga ega sovutish uskunalari asosan yirik korxonalar va katta miqdorda to'plash mumkin bo'lgan mahsulotlarni saqlash uchun mos ekanligini hisobga olish lozim. Gilos kabi tez buziladigan mahsulotlar uchun kichik sig'imli muzlatkichlar talab qilinadi. Hosilni saqlash uchun ko'chma konteyner-muzlatkichlarga ham e'tibor qaratish foydadan xoli bo'lmaydi. Bunday muzlatkichning asosiy afzalliklari shuki, ular infratuzilma xarajatlarini talab qilmaydi, ixcham va ko'chma, harorat tartibi ma'lum bir mahsulotga moslashtiriladi. Ko'chma muzlatkichdan ularni ishlab chiqaruvchilar orasida bir joydan ikkinchi joyga olib o'tgan holda butun meva va rezavorlar mavsumida foydalanish mumkin.

Zamira Tojiyeva.

Kuzatuv kengashi mustaqil a’zolarining ikkinchi xalqaro forumi o‘tkazildi





Mazkur tadbir Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda “UzAssets” AJ hamkorligida tashkillashtirildi.

Ma’lumki, hozirgi kunda respublikamiz davlat ishtirokidagi korxonalari kuzatuv kengashlariga AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Turkiya, Hindiston, Polsha, Mavrikiy va boshqa mamlakatlardan xalqaro darajadagi mustaqil a’zolar (direktorlar) jalb qilingan. Bu jarayon korporativ barqarorlik va xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh bozor tuzilmalarini shakllantirishning muhim qismi hisoblanadi

Ayni shu jihatdan navbatdagi forumning asosiy maqsadi davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va davlat aktivlarini samarali boshqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni muhokama qilishga yo‘naltirildi. Unda 23 ta davlat korxonasi mas’ullari, korporativ kotiblari, mustaqil a’zolari hamda xalqaro konsalting kompaniyalari vakillari ishtirok etishdi.

Forum avvalida Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari Xurshed Mustafayev so‘nggi bir yil davomida davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv, shaffoflik va investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalarni yuqori baholadi. Uning ta’kidlashicha, kuzatuv kengashlaridagi mustaqil a’zolarning professional ishtiroki shunchaki majburiyat belgisi emas, balki davlat sektoridagi haqiqiy o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchidir. Birinchi uchrashuvdan so‘ng o‘tgan bir yil davomida sezilarli yutuqlarga erishildi. Muhokamalar aniq tashabbuslarga, korporativ boshqaruvni mustahkamlash, shaffoflikni oshirish va davlat aktivlarining sarmoyaviy jozibadorligini oshirishdagi amaliy qadamlarga aylandi. Kuzatuv kengashlarining mustaqil a’zolari tajribasi tufayli yangi nazorat mexanizmlari joriy etildi, rahbariyat mas’uliyati kuchaytirildi, risklarni tizimli boshqarish va ichki audit standart amaliyotga o‘tdi. Kompaniyalar mexanizmlarini kuchaytirishdan iborat. Shuningdek, kuzatuv kengashi a’zolari va rahbariyati malakasini oshirishni stajirovka o‘tash va xalqaro ekspertlar bilan hamkorlik qilish orqali ta’minlash, xususiylashtirish tartib-taomillarining shaffofligi va raqobatbardoshliligiga, shu jumladan xalqaro maslahatchilarni jalb etish va ochiq tender savdolarini o‘tkazishga erishish ustuvor masala hisoblanadi.



faoliyatini yaxshilashda mustaqil a’zolarning professionalligi muhim rol o‘ynadi. Zero, mustaqil a’zolarning professional bahosi va manfaatlar muvozanatini kafolatlashi hamda tajribasi tufayli kompaniyalar uzoq muddatli muammolarni hal qilish uchun chuqurroq tayyorlanmoqda. Natijada ushbu korxonalarda ichki nazorat kuchaytirilib, manfaatlar to‘qnashuvi tartiblari, moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan hisobotlar sifati yaxshilanmoqda. Mustaqil a’zolarning korporativ strategiya, kadrlar siyosati va risklarni boshqarish bo‘yicha tavsiyalari boshqaruv hatti-harakatlarini o‘zgartirishga, aktiv qiymatini oshirishga xizmat qilmoqda. O‘z navbatida yaqin kelajak uchun aniq ustuvor vazifa va maqsadlar ham belgilab olingan. Ular asosan moliyaviy hisobotni xalqaro amaliyotga muvofiq yanada standartlashtirish va uyg‘unlashtirish, moliyaviy bo‘lmagan ma’lumotlarni oshkor qilish sifatini oshirish, ichki nazorat va audit “UzAssets” AJ boshqaruvi raisi Bobur Abdinazarovning so‘nggi bir yil ichida erishilgan natijalarga to‘xtalib qayd etishicha, mamlakatimizning bir qator davlat ishtirokidagi korxonalari xalqaro reyting agentliklari — S&P, Fitchning xalqaro reytinglariga ega bo‘ldi hamda yevroobligatsiyalar joylashtirdi. Jumladan, 3 ta korxona tomonidan kredit reytinglari birinchi bor olinib, xalqaro kredit reytinglari soni 17 taga yetkazildi. Shuningdek, 7 ta korxonaning suveren kredit reytingi “BB-”dan “BB” darajasiga oshirildi. ESG yo‘nalishida ham islohotlar amalga oshirilib, 4 ta korxona ESG reytinglarini oldi, 2 ta korxonada ushbu ko‘rsatkich yaxshilandi va umumiy hisobda ESG reytinglari soni 7 taga yetdi. Bunday reytinglar nafaqat xalqaro investorlar e’tirofini mustahkamlaydi, balki atrof-muhit muhofazasi talablariga rioya qilish, ijtimoiy mas’uliyat va korporativ boshqaruvga tizimli yondashishga yordam beradi.



Forumda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Andi Aranitasi, Osiyo taraqqiyot bankining O‘zbekiston bo‘yicha operatsiyalari rahbari Mirzo Iskandar G‘ulomov, Xalqaro moliya korporatsiyasining O‘zbekiston va Turkmaniston bo‘yicha bosh vakili Sadjida Tashpulatova, O‘zbekistonda Jahon banki guruhi dasturi koordinatori Anastassia Aleksandrova so‘zga chiqib, ushbu tashkilotlar tomonidan davlat korxonalarida investitsion jozibadorlikni kuchaytirish, barqaror rivojlanishni ta’minlash va transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishda ko‘rsatilayotgan ko‘mak haqida so‘z yuritishdi hamda o‘z tavsiyalarini bayon etishdi. Xususan, Mirzo Iskandar G‘ulomovning e’tiroficha, OTB tomonidan davlat korxonalarida korporativ boshqaruvni hamda kuzatuv kengashida mustaqil a’zolar faoliyatini rivojlantirish doimiy qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda. Hozirgacha bir qator tavsiyalar inobatga olingan, jumladan a’zolar sonini oshirish bo‘yicha takliflar hayotga tatbiq etilgan. Shuningdek, kuzatuv kengashi a’zolarining 15 foizi ayollardan iborat bo‘lishiga oid taklif ham OTB tomonidan bildirilgan. Ayni paytda ko‘mak ishlari davom ettirilib, mustaqil a’zolarni kuzatuv kengashining qaysi qo‘mitalariga ko‘proq jalb qilish lozimligi taklifi ustida ish olib borilmoqda. “UzAssets” AJ bilan birgalikda texnik ko‘makni rivojlantirish markazi tuzilayapti. U davlat korxonalariga institutsional jihatdan va trening imkoniyatlaridan foydalanish nuqtayi nazaridan yordam ko‘rsatadi.

Tadbirda shuningdek, “O‘zbekneftgaz” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududgazta’minot” AJ, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ vakillari hamda mustaqil a’zolari tomonidan ushbu korxonalarda bajarilayotgan ishlar haqida ma’lumot berildi. Muhokamalar chog‘ida shaffoflik, strategik nazorat, ESG ko‘rsatkichlari, kuzatuv kengashlari samaradorligini baholash, korporativ tuzilmalarni transformatsiya qilish, IPOga tayyorgarlik va strategik investorlarni jalb etish masalalariga e’tibor qaratildi.

Forum yakunida mustaqil a’zolar (direktorlar) institutini strategik nazorat vositasi sifatida mustahkamlash, korporativ boshqaruvning institutsional asoslarini rivojlantirish, kuzatuv kengashlarining tuzilishi va vakolatlarini takomillashtirish, davlat ishtirokidagi kompaniyalar faoliyatida shaffoflik va boshqaruv samaradorligini oshirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Navoiyuran” DK kuzatuv kengashi mustaqil a’zosi Kevin Kim hamda “O‘ztelekom” AK kuzatuv kengashi mustaqil a’zosi Tobias De Vont jurnalistlarga bergan intervyularida mazkur korxonalarda keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida erishilgan yutuqlar, kelgusidagi rejalarga to‘xtalib o‘tishdi.

Ma’lumotlar yagona tamoyillar asosida boshqariladi

Markaziy bank tomonidan RegTech loyihasi doirasida nazorat osti tashkilotlardan hisobotlarni yig‘ishning zamonaviy yondashuvlarini joriy etishga bag‘ishlangan ikkinchi forumi o‘tkazildi.

“RegTech Forum Uzbekistan 2025 II: kelajakni sifatli ma’lumotlar asosida quramiz” nomi ostidagi ushbu tadbir joriy yilning fevral oyida tashkillashtirilgan birinchi forumning davomi bo‘ldi. SupTech dasturining bir qismi bo‘lgan RegTech loyihasi hisobotlarni yig‘ish jarayonlarining shaffofligini oshirish, regulyator yukni kamaytirish va ma’lumotlar sifatini yaxshilashga qaratilgan. Loyiha ma’lumotlarni boshqarishning yaxlit ekotizimini shakllantiradi, unda har bir element — manbadan tortib tahlilgacha — yagona tamoyillar asosida boshqariladi. Ma’lumotlar sifati nafaqat texnik ko‘rsatkich, balki boshqaruv madaniyati va mas’uliyatining vositasi sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Butun bank tizimining barqarorligi aynan ma’lumotlar bilan xatoliklarsiz, bir xil yondashuvda va shaffof ishlashga bog‘liq bo‘ladi.

KPMG xalqaro auditorlik konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda xorijiy ekspertlar ishtirok etib, kredit tashkilotlarida ma’lumotlarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha o‘z



qarashlari va amaliy tavsiyalari bilan o‘rtoqlashdilar. Plenar sessiyasida Ipoteka bank, Asakabank, Xalq banki va Turonbank vakillari ma’lumotlarni boshqarish tizimlarini yaratish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va o‘z tajribalari haqida ma’ruza qildilar. Shuningdek, forum doirasida Xalq banki, Asaka bank, Turonbank va Ipoteka-banki RegTech loyihasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun alohida e’tirof etildi.

Forum RegTech loyihasini samarali joriy etish, mamlakat moliya bozorida ma’lumotlarni boshqarish madaniyatini shakllantirish, regulyator va nazorat ostidagi tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.

Energetika tarmog‘ida kuz-qish mavsumidagi aniq choralar

Milliy matbuot markazida yoqilg‘i-energetika sohasidagi amaliy ishlar, erishilgan natijalar va mavsumiy vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi.



Unda Energetika vaziri, yoqilg‘i-energetika sohasi korxonalari rahbariyati va mas’ullari ishtirok etdi. Energetika vaziri OAV vakillariga joriy yilning o‘tgan davriga qadar amalga oshirilgan ishlar va yil yakunigacha belgilangan rejalar hamda istiqboldagi vazifalar haqida ma’lumot berdi. Ta’kidlanganidek, oktyabr oyidan boshlab energetika tizimi kuz-qish mavsumidagi rejimga o‘tgan bo‘lib, vazirlik va tizim korxonalarida kuz-qish mavsumini betalofat o‘tkazish maqsadida 24/7 rejimida navbatchilik tashkil etildi. Elektr ta’minoti bo‘yicha “1154” raqami va gaz ta’minoti bo‘yicha “1104” raqami orqali koll-markazlar tun-u kun faoliyat yuritmoqda.

Elektr ta’minoti bo‘yicha joriy yilning o‘tgan davrida mamlakatimiz bo‘ylab uzunligi 7 ming 455 km bo‘lgan elektr uzatish tarmoqlari va 1 ming 748 ta transformator punkti yangilandi. Buning natijasida 954 ta mahalladagi 800 mingdan ortiq xonadonlarning elektr ta’minoti yaxshilandi. Joriy yil yoz mavsumida respublikaning elektr energiya iste’moli soatiga 13,3 gigavatt, ya’ni kuniga 270-275 million kVt·soat bo‘lgan bo‘lsa, joriy qish mavsumida soatiga 13,5 gigavatt, kuniga esa 290-300 million kVt·soatgacha yetishi kutilmoqda. O‘tgan yili 81,5 mlrd kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2025-yil yakuni bilan 85,5 mlrd kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi kutilmoqda. Hozirgi kunda ishga tushirilgan yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarining umumiy quvvati 4682 MVt bo‘lib, ular tomonidan joriy yil boshidan beri ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi 9 mlrd kVt soatdan oshdi. Gidroelektr stansiyalari bilan hisoblaganda jami “yashil” energiya hajmi 14,5 mlrd kVt soatdan oshdi. Buning natijasida respublikamizda umumiy ishlab chiqarishda “yashil” energiya ulushi 23 foizni tashkil qildi. 2025-yil yakuni bilan umumiy quvvati 3 000 megavattdan ortiq bo‘lgan quyosh va shamol, 1 167 megavatt quvvatli issiqlik elektr stansiyalari,1 500 megavattdan ortiq energiya saqlash tizimlari foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Bugungi kunga kelib, umumiy 40,1 MVt quvvatga ega 59 ta mikro GES ishga tushirilgan. 2025-yil yakunida qo‘shimcha 15,0 MVt quvvatdagi 13 ta yangi mikro GES ishga tushiriladi. Mavsumda respublikada elektr energiyasi iste’moli qariyb 47 mlrd kVt soatni (kunlik o‘rtacha 257 mln kVt soat yoki o‘tgan yilga nisbatan 20 mln kVt soatga ko‘p, maksimal sutkalik 290-300 mln kVt·soat) tashkil etishi kutilmoqda.

Isitish mavsumida ehtiyojmand oilalarga bir martalik moddiy yordam beriladi. 2025-2026-yilgi isitish mavsumida aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘shimcha moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy yil noyabr oyida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”, “Kambag‘al oilalar reyestri”ga kiritilgan oilalar hamda Mahalla yettiligi tomonidan qo‘shimcha shakllantirilgan ro‘yxatdagi ehtiyojmand oilalarga 1 million so‘m miqdorida bir martalik moddiy yordam ajratiladi. Gaz ta’minoti bo‘yicha 553,8 km uzunlikdagi yuqori va o‘rta bosimli gaz tarmoqlari va 971 ta gaz taqsimlash punktlari yangilandi, modernizatsiya va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Joriy yil boshidan 512,7 ming tonna suyultirilgan gaz yetkazib berildi. Shuningdek, yil yakuniga qadar yana 142,4 ming tonna suyultirilgan gaz yetkazib beriladi. Bundan tashqari, respublikaning barcha hududlarida suyultirilgan gaz yetkazib berish uchun qo‘shimcha 29 mingdan ortiq maishiy gaz ballonlari zaxirasi yaratildi. Yana bir muhim masala. Suyultirilgan gaz ta’minoti bosqichma-bosqich to‘liq raqamlashtirilmoqda. Iste’molchilarga maishiy gaz ballonlarni manzilli yetkazib berishda shaffoflikni ta’minlash hamda korrupsion holatlarni oldini olish maqsadida yangi “Face-ID” tizimi (dastlab Andijon viloyati) ishga tushirildi. Mazkur tizim orqali suyultirilgan gaz iste’molchilarining ma’lumotlari bazasi shakllantirilmoqda. Gaz quyish shoxobchalari va fuqarolar xavfsizligi hamda hisob-kitoblar shaffofligini ta’minlovchi “UGaz” tizimi ishga tushirildi. “UGaz” tizimi orqali har bir gaz quyish shoxobchasida jarayonlar real vaqt rejimida qayd etiladi. Avtomashina gaz quyish shoxobchasiga kirganda uning texnik ko‘rikdan o‘tganligi avtomatik tarzda tekshiriladi. Agar texnik ko‘rik muddati tugagan bo‘lsa — tizim operatorga xabar beradi. Shuningdek, agar yoqilg‘i turi mos kelmasa yoki ballon ro‘yxatdan o‘tkazilmagan bo‘lsa, tizim bu haqda ham operatorni shu joyning o‘zida ogohlantiradi. Bu – AGTKSH, haydovchi va yo‘lovchilar xavfsizligini ta’minlaydi. Tizim orqali tabiiy gazni sotish jarayonlarining shaffofligi ta’minlanadi. Ya’ni, gaz quyish shoxobchasi qabul qilib olayotgan gaz hajmlarining aniq hisob-kitobi yuritiladi. Bu esa, shoxobchalarning tabiiy gazdan noqonuniy foydalanish holatlarini oldini olishga xizmat qiladi. Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, AGTKSHlaridagi har bir gaz to‘ldirish kolonkasi va undagi xodim faoliyati onlayn nazorat qilinadi. Bugungi kunda respublika bo‘yicha 1 512 ta AGTKSH bo‘lib, shundan “UGaz” tizimida 1366 tasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan, shundan 691 tasi to‘liq raqamlashtirilgan. Joriy yil yakuniga qadar qolgan barcha AGTKSHni raqamlashtirish ishlari yakuniga yetkaziladi.

Ko‘mir ta’minoti bo‘yicha 2025-2026-yillar kuz-qish davri uchun iste’molchilarga jami 10 mln tonna mahalliy va 2 mln tonna import ko‘mir ko‘mir yetkazib berish rejalashtirilgan. Shundan, issiqlik elektr stansiyalariga – 4,9 mln tonna, budjet tashkilotlariga – 660 ming tonna, aholiga – 1,5 mln tonna, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlarga – 3,1 mln tonna. Amalda, issiqlik elektr stansiyalariga 4,2 mln tonna (95 foiz) yetkazib berildi. Hozirda issiqlik elektr stansiyalarida 724 ming tonna ko‘mir zaxirasi mavjud. Budjet tashkilotlariga mavsum boshidan 685 ming tonna (104 foiz) yetkazib berildi. Aholi iste’molchilariga mavsum boshidan 450 ming tonna ko‘mir yetkazib berildi. Bugungi kun holatiga hududlarda 27 ming tonna ko‘mir zahirasi va 68 ming tonna temir yo‘l orqali bormoqda. 2025-yil 28-oktyabrga qadar xususiy tadbirkorlar tomonidan jami 2,9 mln tonna ko‘mir importi amalga oshirildi, jumladan, markazlashgan holda 727 ming tonna yoki rejaga nisbatan 145 foiz ko‘mir import qilingan. Bugungi kunda omborlarda 200 ming tonna import ko‘mir qoldig‘i mavjud. Neft mahsulotlari ta’minoti bo‘yicha kuz-qish davrida jami 995 ming tonna avtobenzin yetkazib berish reja qilingan. Bundan tashqari, ehtiyoj keskin oshgan holatlar uchun 65 ming tonna avtobenzin zaxirasi yaratilgan. Dizel yonilg‘isiga bo‘lgan jami talab 776 ming tonnani tashkil etishi kutilmoqda va ushbu hajmlarni o‘z vaqtida yetkazib berish choralari ko‘rilgan. Energiya resurslarini iqtisod qilish bo‘yicha 2025-yil uchun jami 6 mlrd kVtsoat elektr energiyasi va 4,4 mlrd kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinishi maqsad qilingan. Bugungi kunga qadar yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari orqali 9 mlrd kVt·soatdan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarilishi natijasida 2,7 mlrd kub metr tabiiy gaz iqtisod qilindi. Joriy yil yakuniga qadar yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarida o‘tgan yilga nisbatan qo‘shimcha 5,6 mlrd kVtsoat (2025 yilda jami 10,5 mlrd kVt·soat) elektr energiyasi ishlab chiqarilishi natijasida qo‘shimcha 1,7 mlrd kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinadi. Shuningdek, barcha hududlarda va tarmoqlarda ham energiya tejamkorlik bo‘yicha ishlar olib borilyapti. Bugungi kunga qadar ko‘rilgan choralar natijasida 2,6 mlrd kub metr tabiiy gaz va 5,8 mlrd kVt·soat elektr energiyasi tejaladi. Tizimda olib borilgan ishlar natijasida avariyaviy o‘chishlar soni 50 foizga kamaydi, shuningdek, avariyaviy holatlarni bartaraf etish davomiyligi 1-1,5 soatgacha qisqartirildi. Avariyani bartaraf etish uchun hududlarda jami 908 ta transformator, 538 tonna transformator moyi, 546 km kabel, 95 tonna sim, 4,1 ming ta tayanch hamda 88 mingta ehtiyot qismlar (izolator va ajratkich) hamda muftalar zaxirasi yaratilib, 6 505 tadan ortiq xodimdan iborat jami 1 201 ta brigada va ularga xizmat ko‘rsatuvchi 905 ta avtomashina hamda 370 ta maxsus texnikalar shay holatga keltirildi. Hududlarda avariyaviy holatlarning oldini olish va ularni tezkor bartaraf etish uchun maxsus brigadalar tuzilib, ular zarur texnika, zaxira materiallari va himoya vositalari bilan ta’minlangan. Mavsumda iste’molchilarni energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash uchun barcha imkoniyatlarni safarbar qilgan holda tizimli ishlar tashkil qilinadi. Tadbir yakunida jurnalist va blogerlarning savollariga batafsil javob berildi.

Yalpi ichki mahsulot dinamikasi

Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda 1 303,7 trln so‘mni hamda 2024 yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o‘sish sur’ati 7,6 foizni tashkil etdi.

YaIM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-sentyabr oylaridagi narxlarga nisbatan 112,2 foizni tashkil etdi. YaIM deflyator indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoat tarmog‘ida – 113,3 foiz va boshqa xizmat tarmoqlarida – 115,2 foiz qayd etildi.

Respublikaning o‘rtacha darajasidan past bo‘lgan deflyator indekslari qurilishda – 105,9 foiz hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 106,3 foiz qayd etildi.

Iqtisodiy o‘sish sur’ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog‘liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi YaIM umumiy hajmining 95,1 foizini tashkil etdi va 7,7 foizga o‘sdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 4,9 foizni tashkil etdi va 6,9 foiz darajasida o‘sish qayd etildi.

2025-yilning yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko‘ra, YaIM tarkibida katta bo‘lmagan o‘zgarishlar kuzatildi. 2024-yilning mos davriga nisbatan YaIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 48,1 foizdan 49,4 foizga, sanoatning ulushi 25,9 foizdan 26,1 foizga va qurilishning ulushi 7,4 foizdan 7,5 foizga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi 18,6 foizdan 17,0 foizga kamaydi.

Sanoat tarmog‘ida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi 323 805,7 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,8 foizga o‘sish kuzatildi. Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 7,5 foizga hamda suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish tarmog‘ining 8,0 foizga ijobiy o‘sishi hisobiga ta’minlandi.

Qurilish tarmog‘ida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi 92 873,0 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda qurilish ishlari hajmi 14,2 foizga o‘sdi. Jumladan, bino va inshootlar qurilishi 5,9 foizga, fuqarolik obyektlari qurilishi 29,4 foizga va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 57,6 foizga o‘sgan.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi 612 179,6 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2024 yilning mos davriga nisbatan 8,7 foizga o‘sdi. Shu jumladan, savdo xizmatlari 12,8 foizga, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 8,4 foizga, tashish va saqlash xizmatlari 11,5 foizga, axborot va aloqa xizmatlari 21,1 foizga, boshqa xizmatlar 6,4 foizga oshdi.

Savdo tarmog‘ining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibida eng katta ulushi chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to‘g‘ri keldi va 54,4 foizni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi 32,0 foizni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta’mirlashning ulushi 13,6 foizni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan 638 221,7 mlrd so‘m miqdorida qo‘shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo‘shilgan qiymatning 51,5 foizi yaratilgan. Shundan 32,0 foizi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 13,4 foizi sanoat, 11,3 foizi qurilish tarmoqlari va 43,3 foizi xizmatlar sohasiga to‘g‘ri keldi. Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 96,9 foiz, qurilishda 77,6 foiz, xizmatlar sohasida 45,1 foiz va sanoatda 26,4 foizni tashkil etdi.

В МИПТ состоялись переговоры с американской делегацией



27 октября глава МИПТ Лазиз Кудратов встретился с делегацией США во главе со Специальным посланником по Южной и Центральной Азии Серхио Гором и заместителем Государственного секретаря Кристофером Ландау.

Стороны обсудили текущее состояние и перспективы развития узбекско-американского сотрудничества в сфере инвестиций, промышленности, энергетики и инфраструктуры, а также реализацию договорённостей, достигнутых в ходе сентябрьского визита Президента Узбекистана Ш.М.Мирзиёева в США.

Лазиз Кудратов отметил важность практической реализации достигнутых договорённостей и подчеркнул высокий интерес американских компаний к инвестиционным проектам в приоритетных отраслях - от горнодобывающей промышленности и сельского хозяйства до транспорта и IT.

В ходе беседы также рассмотрены вопросы проведения предстоящего Саммита «С5+1» в США, который станет важным этапом в укреплении регионального взаимодействия и углублении стратегического партнёрства между странами Центральной Азии и Соединёнными Штатами Америки.

Первый рейс национального перевозчика по маршруту Ташкент – Краснодар

Как сообщает издание Кубанские новости, в Краснодаре 26 октября приземлился рейс Uzbekistan Airways из Ташкента. Авиакомпания стала первой иностранной, возобновившей полеты в аэропорт кубанской столицы после его открытия в 2025 году.



Как уточнили в пресс-службе воздушной гавани, самолет национального перевозчика Узбекистана встретили на перроне традиционной водной аркой. На борту Airbus A321neo находилось 118 пассажиров. В обратном направлении рейс вылетел со 169 пассажирами на борту.

В осенне-зимнем расписании аэропорта Краснодар Uzbekistan Airways планирует открыть второе направление в Узбекистан – Наманган. Полеты запланированы начать с 28 октября 2025 года.

Рейсы в Ташкент будут обслуживаться в аэропорту Краснодара трижды в неделю: по средам, пятницам и воскресеньям с вылетом в 10.30. Время в пути составит 3 часа 35 минут.

Рейсы в Наманган будут выполняться дважды в неделю: по вторникам и четвергам с вылетом в 10.30. Время в пути - 3 часа 50 минут.

Uzbekistan Airways пока остается единственным перевозчиком на этих маршрутах, однако аналогичные рейсы в Узбекистан, в том числе в Самарканд, готовится выполнять российская авиакомпания «Азимут», базирующаяся в Ростове-на-Дону и Краснодаре.

В городе Москва прошел 4-й национальный конгресс «Национальное здравоохранение 2025»

Организаторами 4-го Национального конгресса с международным участием «Национальное здравоохранение 2025» выступили Министерство здравоохранения Российской Федерации, базовая организация общественного здоровья и информатизации здравоохранения государств – участников СНГ – ЦНИОИЗ МЗ РФ и Фонд Росконгресс.

В рамках Национального конгресса состоялась стратегическая сессия экспертов стран Содружества «Здоровьесбережение в фокусе научной парадигмы экспертного сообщества».

В мероприятиях приняли участие представители Азербайджана, Армении, Беларуси, Казахстана, Кыргызстана, России, Таджикистана, Туркменистана, Узбекистана, Бангладеш, Болгарии, Германии, Египта, Индии, Индонезии, Катара, Китая, Таиланда, Швейцарии, Шри-Ланка, ЮАР, а также представители Исполнительного комитета Содружества Независимых Государств и Всемирной организации здравоохранения.

Программа Конгресса состояла из более чем 30 тематических мероприятий. На пленарных сессиях участники обсуждали вопросы будущего медицины – новая модель охраны здоровья – 2040: переход от реактивной



к предиктивной медицине, а также роль питания в здоровье населения. Особое внимание уделено развитию человеческого капитала отрасли и роли медицинских вузов в подготовке специалистов. Отдельный блок вопросов посвящен искусственному интеллекту в реальной практике, внедрению инновационных ИИ-решений и поддержке врачей в освоении новых технологий. Эксперты также представили свои лучшие региональные практики и



федеральные проекты: «Сердце нации 2.0», «Будущее реабилитации», «Новые горизонты в онкологии», «Битва за здоровье» и другие инициативы.

На полях Конгресса состоялось награждение победителей III Всероссийского фотоконкурса «Медики на работе» и Международного фотоконкурса «Медики всех стран, объединяйтесь!». Организаторы конкурса учредили специальную премию жюри «За верность памяти защитников Отечества» в честь 80-летия Победы в Великой Отечественной войне 1941–1945 годов.

На торжественной церемонии закрытия медицинским работникам были вручены государственные награды.

«Медаль имени Николая Александровича Семашко» Министерства здравоохранения Российской Федерации вручена за значимый личный вклад в развитие сотрудничества государств – участников СНГ в сфере здравоохранения советнику департамента по сотрудничеству в политической, гуманитарной и социальной сферах Исполкома СНГ Елене Шамаль.

Davlat Soliq Qo'mitasi

Qurilish korxonalari 5,6 trln so‘mdan ortiq soliq to‘lagan

2025-yil yanvar-avgust oylarida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi 30 023 ta yuridik shaxs tomonidan 5,6 trln so‘mdan ortiq soliq to‘langan. Shundan, 931 mlrd so‘mi, ya’ni 16,4%i 20 ta korxona hisobiga to‘g‘ri keladi. Ularning jami tovar aylanmasi 15,8 trln so‘mdan ziyod, qo‘llanilgan soliq imtiyozlari miqdori esa 323,3 mlrd so‘m.

Eng ko‘p soliq to‘lagan 20 ta korxona tomonidan qo‘llanilgan soliq imtiyozlari hamda to‘langan soliqlar batafsil infografikada.

Ushbu soliq to'lovchilar tomonidan to‘langan tushumlar soliq turlari kesimida:

QQS - 459,2 mlrd so‘m;
JShODS - 162,4 mlrd so‘m;
foyda solig'i - 136,2 mlrd so‘m;
boshqa soliqlar - 173,2 mlrd so‘m.

2025-yil yanvar-avgust oylarida qurilish sohasida eng ko‘p soliq to‘lagan top-20 korxona (mlrd so‘mda)


YURIDIK SHAXSLAR SONI 30 023

Tovar aylanmasi	To‘langan soliqlar	Soliq imtiyozlari
114 868,7	5 685,1	1 787,4

SHUNDAN, TOP-20 SOLIQ TO‘LOVCHI BO‘YICHA

Tovar aylanmasi	To‘langan soliqlar	Soliq imtiyozlari
15 805,5	931,0	323,3
Jami summadagi ulushi		
13,8%	16,4%	18,1%

TOP 20 TUSHUMLARI
(soliq turlari bo‘yicha)



Qo‘shilgan qiymat solig‘i	459,2
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	162,4
Foyda solig‘i	136,2
Boshqa soliqlar	173,2

ENG KO‘P SOLIQ TO‘LAGAN TOP 20

to‘langan soliqlar

1. **"DISCOVER INVEST" MChJ** — 127,0
2. **"AGROMIR BUILDINGS" MChJ** — 86,8
3. **"TREST-12" AJ** — 66,3
4. **"KOC CONSTRACTION MEKANIK ELEKTRIK" MChJ XK** — 56,0
5. **"LAND HOUSE" MChJ** — 52,7
6. **"ARCHITECTS DEVELOPMENT" MChJ QK** — 52,1
7. **"O‘ZNEFTGAZ-QUDUQ TA‘MIRLASH" AJ** — 50,0
8. **"2-SON QURILISH DIREKSIYASI" MChJ** — 44,9
9. **"ABSOLUTE BUSINESS TRADE" MChJ** — 43,8
10. **"BIR INSHAAT" MChJ** — 39,2
11. **"OZUN TASHKENT CONSTRUCTION" MChJ XK** — 37,5
12. **"ALTAIR BUILDING PARTNERS" MChJ QK** — 36,9
13. **"SEPCOILL ELECTRICK POWER CONSTRUCTION ZARAFSHAN" MChJ** — 36,3
14. **"UET CONSTRUCTION" MChJ** — 34,5
15. **"GOLD STEP INVEST" MChJ** — 32,2
16. **"MIMAR GROUP" MChJ** — 30,2
17. **"O‘ZSHAHAR QURILISH INVEST" MChJ** — 29,6
18. **"QAMCHIQAVTOYO‘L IHTISOSLASHTIRILGAN YO‘LLARDAN FOYDALANISH" UK** — 27,5
19. **"AYSEL INSHAAT" MChJ QK** — 24,1
20. **"MESMER-EAST" MChJ** — 23,4

Таъсисчи
Давлат активларини бошқариш агентлиги
“Бизнес-Daily Медиа”
ноширлик уйи МЧЖ

Бош директор в.в.б. Бош муҳаррир
У. ПУЛАТОВ

Мурожаат учун
Тел.: +998 (99) 353-55-54
E-mail: biznesdm 2020@gmail.com
Манзил: 100000, Тошкент шаҳри, Амир Темур кўчаси, 6-уй.

Газета 1994 йил 31 августдан чиқа бошлаган.

2013 йил 12 апрелда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0064-сон билан қайта рўйхатдан ўтган.

2025 йилдан бошлаб газета PDF электрон шаклда чиқади. Нашр даврийлиги: ҳафтада икки марта – ҳар сешанба ва пайшанба кунлари. Формат А3 (816x406)

© Biznes Daily “Биржа”дан кўчириб босиш фақат

“Бизнес-Daily Медиа” НУ МЧЖ рухсати билан амалга оширилади.

Газета жамият матбаа бўлимида терилди ва саҳифаланди.

© Biznes Daily “Биржа” оригинал макети.

✆ Газета текин тарқатилади

telegram
BIZNES DAILY BIRJA